

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO'K: 811.512.133.43

**NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI “GANJ” VA “GAVHAR”
ISTILOHLARI BILAN BOG‘LIQ LEKSEMALAR XUSUSIDA****ABOUT LEXEMES RELATED TO THE TERMS “GANJ” AND “GAVKHAR” IN THE
NAVOI EPIC “SADDI ISKANDARI”****О ЛЕКСЕМАХ, СВЯЗАННЫХ С ТЕРМИНАМИ «ГАНДЖ» И «ГАВХАР» В ЭПОСЕ
НАВОИ «САДДИ ИСКАНДАРИ»****Alimova Zarifa Vaxobovna**

Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida shoir tomonidan qo‘llanilgan forsiy so‘zlar xususida so‘z boradi. Asardagi forsha “ganj” va “gavhar” so‘zlarining etimologik xususiyatlari, ularning leksik ma‘nolari, forsch-tojikcha lug‘atlardagi izohlarga asoslanganligi, boshqa manbalarda keltirilgan izohlarga taqqoslanganligi, forsha so‘zlarning Navoiy asarlari izohli lug‘atidagi leksik ma‘nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. “Ganj” va “gavhar” leksemalari asosida yasalgan forsiy so‘zlar izohi maqolaning asosiy maqsadi qilib belgilandi. Maqolada keltirilgan forsha so‘zlarning leksik va semantik jihatdan ma‘nolari izohlangan, ular asosida shaxs otlari hosil qilingani misollar orqali ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье идет речь о персидских словах, которых использовал поэт в произведении Алишера Навои «Садди Искандари». Предоставлены научные мнения узбекских языковедов и этимологическая характеристика персидских слов «гандж» и «гавхар», их лексические значения, на основе комментариев в персидско-таджикских словарях, сравнение с комментариями, приведенными в других источниках, лексические значения персидских слов в аннотированном словаре Навои. Объяснение персидских слов на основе лексем «Гяндж» и «гавхар» (драгоценный камень) было определено как основная цель статьи. Объясняются лексические и семантические значения представленных в статье персидских слов, а также на примерах выявляется, что на их основе образуются личные существительные.

Abstract

This article talks about the Persian words used by the poet in Alisher Navoi's work "Saddi Iskandari". The etymological characteristics of the Persian words "ganj" and "gavhar" in the work, their lexical meanings, based on comments in Persian-Tajik dictionaries, comparison with comments given in other sources, lexical meanings of Persian words in the annotated dictionary of Navoi's works scientific opinions are presented. The explanation of the Persian words based on the lexemes "Ganj" and "gavhar" was defined as the main goal of the article. The lexical and semantic meanings of the Persian words presented in the article are explained, and it is revealed through examples that personal nouns are formed on the basis of them.

Kalit so‘zlar: forsha-tojikcha so‘zlar, lug‘aviy birlik, so‘z semantikasi, xazina, qimmatbaho so‘z, shaxs otlari, ma‘nodosh so‘zlar, takrorlar, izofali birikmalar.

Ключевые слова: персидско-таджикские слова, лексическая единица, семантика слова, сокровище, драгоценное слово, личные существительные, синонимы, повторы, изафетные сочетания.

Key words: Persian-Tajik words, lexical unit, word semantics, treasure, precious word, personal nouns, synonyms, repetitions, izophetic compounds.

KIRISH

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida, balki jahon ilm-fanida ham qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur maqola “Xamsa” ning oxirgi dostoni hisoblangan “Saddi Iskandariy”dagi ayrim forsiy so‘zlar tahliliga bag‘ishlanadi. Adabiyotshunos F.Karimova ta’kidlashicha, Navoiy “Xamsa” dostonlari syujetini uzoq yillar

davomida har tomonlama o'ylab, pishitib yurganligi uchun ham uni juda qisqa muddatda – ikki yilda yozib tugatdi. Ma'lumki, yuqorida tilga olingan "Xamsa" 1483-1485-yillarda yaratilgan [4, 33].

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek aadabiyotshunosligi va tilshunosligida Alisher Navoiy ijodini o'rganish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar ko'lami yil sayin ortib bormoqda. Adabiyotshunos olimlardan A.Hayitmetov, B.Abdullayev, I.Haqqul, S.G'aniyeva, A.Qayumov, E.Umarov, Yo.Is'hoqov, H.Jo'rayev, U.Qobilov va boshqalar Navoiy asarlarining turli qirralarini yoritishga o'z hissalarini qo'shganlar. B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, A.Karimov, Z.Isaqova, D.Abduvaliyeva kabi olimlar Navoiy asarlarini lingvistik jihatdan tadqiq etgan tilshunoslardir. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulovlar Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga munosib hissa qo'shganlar. Xususan, tilshunos N.Umarova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida Navoiy she'riyatida rang semasini ifodalovchi leksik birliklar, maqol va iboralarning uslubiy xususiyatlari, kitobat san'ati, shoir g'azallarida laff va nashr san'ati, tazod (antiteza), libos nomlari haqida batafsil to'xtalib o'tadi [7, 5-53].

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni turkiy so'zlar bilan bir qatorda arabiy va forsiy so'zlarga ham bo'ydir. Shoir dostonining bir bobini Sulton Abusaid o'limi voqeasini yoritishga bag'ishlagan. Shoir uni eng avvalo aql-idroki o'tkir, tadbirkor va mulkgir hukmdor sifatida tilga oladi. "Xuroson va Movarounnahrda tashqari, -deydi Navoiy, - boshqa ko'p o'lkalar ham unga qaram edi. Xorazmdan tortib Kirmon mamlakatlarigacha, Qoshg'ardan to Sipohongacha bo'lgan joylarni bosib oldi" [3,17-18].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Saddi Iskandariy" dostonida forsiy so'zlar ko'lami shoir mahoratining naqadar yuksak darajada ekanidan dalolat beradi. Jumladan, *ganj* va *gavhar* leksemalari shular jumlasidandir.

Ganj – گنج ot turkumiga oid leksema bo'lib, "xazina" ma'nosini ifodalaydi. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da *ganj* leksemasi quyidagicha izohlanadi: **ganj** – bu ot "sig", "saqlan" ma'nosini anglatadigan *ganjidan* fe'lining (PRS, 428) hozirgi zamon asosiga teng bo'lib, asli "*jamlangan narsalar*" ma'nosini anglatadi. Keyinchalik "qimmatbaho narsalar jamlab saqlanadigan joy", "xazina" ma'nosini anglata boshlagan (PRS, 428; O'TIL, I, 184).

Mazkur leksema Navoiynig "Saddi Iskandariy" dostonida ko'p qo'llangan leksemalar qatoriga kiradi. ANATILda ushbu leksemaning bir qancha ma'nolari tasniflangan. Biz tadqiq qilayotgan maqolada *ganj* leksemasining asosan *xazina*, *oltin*, *qimmatbaho so'zlar* ma'nosida kelishi aniqlandi.

"Saddi Iskandariy" dostonida *ganj* leksemasining yuqorida keltirilgan ma'nolari uchragan baytlardan misollar keltiramiz:

To'kay olingga ul qadar mol-u ganj,

Ki yetsun sipohingga yog'moqda ranj

Mazkur baytda *ganj* leksemasi *oltin*, *kumush* ma'nosida kelganligi shubhasizdir.

Birovkim erur ganj vayronasi,

Ne g'am ajdaho bo'lsa hamxonasi (Saddi Iskandariy, 14-bet).

Ma'nosi: *Birovga vayrona xazina bo'lgani singari, uning hamxonasi ajdaho bo'lsa ne g'am* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 17-bet). Bu baytda *ganj* leksemasi joy ma'nosida qo'llanganiga ham shubha yo'q. Ya'ni, birovgacha uning vayrona bo'lgan uyi ham bir xazinadek ko'rinishi badiiy ifodalar orqali tasvirlangan [8, 365].

Aning ganjiddin har diram axtare,

Yashil kup anga gunbadi axzare (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *Uning xazinasidagi har bir kumush tanga – bir yulduzdir, yashil kup (may saqlanadigan katta idish) esa unga ko'k gumbazdir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet). Mazkur baytdagi *ganj* esa Navoiy tomonidan so'z mulki sultonlaridan biri Nizomiy Ganjaviy asarlari xazinasidagi har bir qimmatbaho so'z kumush tanga – yulduzga tenglashtiriladi [9, 388].

Shu o'rinda Navoiy asarlarida uchragan "*ganj*" leksemasining qanday ma'nolarni bildirishini quyidagi jadvalda ifodalashni ma'qul topdik:

GANJ	1	xazina, boylik
	2	naqd, oltin, kumush
	3	ilm, bilim, ma'no

ILMIY AXBOROT

	4	maqsad, muddao
	5	soʻz, qimmatbaho toʻplam
	6	baxt qushi, Semurgʻ

Quyidagi baytda ham **ganj** leksemasi orqali qimmatbaho soʻz, *bebaho toʻplam* maʼnolari anglashilishiga shubha yoʻq:

Bu besh ganjidinkim jahondir toʻlo,

Ki koʻk javfida dogʻi yoʻqdir xalo (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Maʼnosi: *Bu besh xazina bilan jahon toʻla boʻlgani singari, koʻk osmonning ham biron burchagi undan xoli emas* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Dostonda **ganj** leksemasi takror holda qoʻllanishiga ham misollar uchraydi:

Qazo qismidin yetmayin ranj anga,

Bu yangligʻ ne bir ganj, besh ganj anga (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Maʼnosi: *Nizomiy Ganjaviyning xazinalari bittagina emas, beshta boʻlib, har qalay, qazo qismatidan ularga shikast yetmasin* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Dostonda **ganj** leksemasi izofali birikma tarkibida ham uchraydi. Maʼlumki, “izofa” arabcha soʻz boʻlib, “qoʻshish, orttirish” degan maʼnolarni ifodalaydi. Izofa aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish oʻrtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bunda aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish oʻrtasida urgʻusiz -i yoki -yi tovushi orttiriladi. Masalan, oʻzbekcha-forscha soʻzlardan tashkil topgan izofiy birikmalarga kimsayi notavon, telbai sarson, tarkibi tojikcha soʻzlardan iborat boʻlgan izofiy birikmalarga *ganji bebaho, obi ravon, xurshidi tobon, kulbayi vayrona* kabilarni misol keltirish mumkin [10, 640]:

Bu yangligʻki ganji maoniy toʻkub,

Jahon ahligʻa jovidoniy toʻkub (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Maʼnosi: *U jahon ahliga shunday maʼnolar xazinasini toʻkkanki, u xazinalar oʻlmas va abadiydir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Vujudingni chun qildi Haq ganji roz,

Haqiqat duru laʼlidan yoʻq majoz (Saddi Iskandariy, 13-bet).

Maʼnosi: *Bu hukmda sening vujuding sirlar xazinasini ekani, xazinangdagi duru laʼllaring esa aslligi bitilgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 16-bet).

Ganjposh – گنجپاش “ganj” – “xazina”, “posh”- “poshidan” (sochmoq) feʼlining hozirgi zamon asosidan hosil qilingan ot turkumiga tegishli leksema boʻlib, “xazina sochuvchi” deya tarjima qilinadi. Mazkur *Ganj*, yaʼni *xazina* leksemasi orqali oltin, tillalar xazinasini tushuniladi. Shu maʼnoda ANATILda *ganjposh* – oltin va durlar sochuvchi deb tarjima qilingan (ANATIL, 1-jild, 394-bet).

Ham ul ganjrezu ham ul ganjposh,

Boʻlub bazlidin dahr aro ganj fosh (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Maʼnosi: *U xazinagina yaratib qolmagan, balki ularni oʻz saxovatkor qoʻli bilan dunyoga sochgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, *ganjrez* va *ganjposh* leksemalari oʻzaro sinonim boʻib, *ganjrez* soʻzining *rez* qismi “*rixtan*”-“*soshmoq*”, “*quymoq*”, “*sepmaq*” feʼlining hozirgi zamon asosidir. Natijada “*ganj*”-“*xazina*”, “*rez*”-“*sochuvchi*”, “*sepuvchi*” asosida “*xazina sochuvchi*” soʻzi hosil boʻlgan. FTZTda “*ganjrez*” leksemasi “qimmatli”, “qadrli” (*гачьбахи, гыхарбор*) kabi maʼnolarni ifodalashi taʼkidlangan (FTZT, 1-jild, 301-bet).

Ganjrez گنج ریز ot turkumiga tegishli leksema boʻlib, *xazina sochuvchi* maʼnosini ifodalaydi. Leksemaning *rez* ریز qismi *rixtan* – *sochmoq, quymoq* maʼnosini ifodalovchi feʼlining hozirgi zamon asosidir [11, 382].

Yuqorida keltirilgan baytda **ganjrez** leksemasi uchraydi : *Ham ul ganjrezu ham ul ganjposh*. Mazkur leksema **ganjposh** (xazina sochuvchi) soʻziga sinonim holda qoʻllanilgan.

Ganjxez – گنجخیز ot turkumiga oid leksema hisoblanadi. Navoiy asarlari lugʻatida ham, forscha-tojikcha lugʻatlarda ham, etimologik lugʻatlarda ham ushbu soʻzning izohi berilmagan. Eʼtiboringizni quyidagi baytga qaratsak:

Birovga yetishgonga qiymat pashez,

Yana birga qiymat kelib ganjxez (Saddi Iskandariy, 30-bet).

Ma'nosi: *Birovning so'zi qora chaqalik qimmatga ega bo'lmagani holda, ba'zi birovlariniki xazina qadar bebaho qimmatga egadir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 33-bet).

Dostonning nasriy bayonidan ayon bo'ladiki, *ganjhez* leksemasi "*bebaho qimmatga ega bo'lgan*" deya tarjima qilingan. Shu o'rinda Y.Rubinchikning "Персидско-русский словарь" nomli lug'atida *خيز xiz* leksemasiga berilgan izohga to'xtalmoqchimiz: *خيز xiz*: 1. "turmoq" fe'lining hozirgi zamon asosi; 2. *sakrash*; 3. *balandlik* (tom balandligi nazarda tutilgan); 4. Qo'shma so'zning ikkinchi komponenti bo'lib, *-ser, ko'p* ma'nolarini ifodalaydi [6,594]. *Xiz* so'ziga so'nggi o'rinda berilgan ta'rifdan kelib chiqib, *ganjhez* leksemasini "*serxazina*", "*ko'p xazina*", "*bebaho xazina*" deb izohlash mumkin. Shunda *ganjhez* leksemasining nasriy bayonda keltirilgan izohi o'rinli ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

Ganjina – گنجينه ot turkumiga oid leksema bo'lib, **xazina**, **kon** ma'nosini ifodalaydi (ANATIL, 1-jild, 393-bet). O'zbek tilining etimologik lug'atida *ganjina* so'ziga shunday ta'rif berilgan: **ganjina** – bu ot boylik ma'nosini anglatadigan tojikcha *ganj* otiga *-ina* qo'shimchasini (TJRS, 542) qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, *xazina* ma'nosini anglatadi [5,59]. "Saddi Iskandariy"da *ganjina* leksemasi ishtirokidagi baytlar ko'p uchraydi. Jumladan:

Qilib ko'nglini roz ganjinasi,

Yuzin aylading zot oyinasi.

Gavhar – گوهر leksemasi ot turkumiga oid bo'lib, asarda ko'p o'rinlarda uchraydi. ANATILda *gavhar* so'zining quyidagi ma'nolari tasnifi keltirilgan: *gavhar, dur, qimmatbaho tosh; farzand; asl nasl-nasab, kelib-chiqish; ko'z yoshi; to'rt gavhar: yer, suv, o't, havo; mol-jon; go'zal, chiroyli, mahbuba; so'z, gap, ibora, fikr, o'y; e'tiborli, ulug', hurmatga loyiq* [1,387].

Zihi anbiyo xaylining sarvari,

Boshing uzra sarxaylliq gavhari (Saddi Iskandariy, 11-bet).

Ma'nosi: *Ey boshi uzra ulug'vorliq gavhari porlagan va jamiki payg'ambarlarning sardori bo'lgan zot* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 14-bet).

Gavhar leksemasi dostonida forsiy izofa tarkibida ham uchraydi:

Tutub gavhari zoting avval vujud,

Bo'lub so'ngra mavjud budu nabud (Saddi Iskandariy, 18-bet).

Ma'nosi: *Avvalo, sening gavhardek pok zoting yaratildi, so'ngra dunyodagi bor-u yo'q narsalar bir-bir paydo bo'ldi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 14-bet).

Gavhar leksemasi dostonida takror o'rinlarda kelishi ham kuzatiladi:

Bo'lub Xo'shag'a dona gavhar kibi,

Ne gavhar kibi, balki axtar kibi (Saddi Iskandariy, 18-bet).

Ma'nosi: *Falakdagi boshog donalari jilvalanuvchi gavharni eslatar, gavhar ham ems, yonib, porlab nur sochayotgan yorug' yulduzlar singari edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 14-bet). Mazkur baytda *gavhar* so'zi yulduz ma'nosida kelayotir. Ma'lumki, baytdagi *Xo'sha* so'zi oltinchi burjning nomi bo'lib, "*Sunbula*" deb ham yuritiladi. Shu nuqtayi nazardan har bir burj ta'rifi, tasnifi yulduz bilan bog'liqligi tabiiy.

Tilshunos S.Gafurova o'zining "Tavorixi guzida – Nusratnoma" asari leksikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida forsha so'zlarning mavzu guruhlarini qatorida *guh* so'zini ham keltirib, ushbu so'z ko'p o'rinlarda uchragani haqida to'xtaladi hamda mazkur leksemani narsa va buyum nomlari qatorida izohlab o'tadi [2,96].

Gar ul bo'lmasa kimsaga yo'q sharaf,

Aningdekki, gavharsiz o'lg'ay sadaf (Saddi Iskandariy, 28-bet).

Ma'nosi: *Agar ma'noli so'z bo'lmasa, ichida gavhari yo'q sadaf singari, insonning hech qanday obro'-e'tibori yo'qdir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 31-bet).

Mazkur baytdan ko'rinadiki, shoir *gavhar* leksemasi orqali insonning obro'-e'tibori naqadar bebaho, qadrli ekanini ko'rsatib bergan. Bu bilan Navoiy badiiy tasvir vositasi -o'xshatishning munosib turidan foydalangani yaqqol seziladi.

Bu gavhardin o'ldi to'la g'arbu sharq,

Vale topti qiymatda bisyor farq (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *So'z gavharidan mashriq ham, mag'rib ham to'la, lekin ular o'z qimmatini bilan bir-biridan nihoyatda katta farq qiladi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 33-bet). Keltirilgan baytda *gavhar* leksemasi so'z ma'nosida kelgan.

ILMIY AXBOROT

Dostonda *gavhar* soʻzining *guhar* shaklida kelish hollari ham kuzatildi:

Guhar ul qadar sochtim ofoq aro

Ki, javf oʻldi gum bu kuhan toq aro (Saddi Iskandariy, 43-bet).

Maʼnosi: *Dunyoga shu qadar koʻp gavharlarni socha boshladimki, bu koʻhna dunyoda boʻsh joy qolmadi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 46-bet). Keltirilgan baytdan ham koʻrinadiki, *gavhar* leksemasi soʻz maʼnosida qoʻllanilgan.

ANATILda *gavhar* leksemasi asosida hosil qilingan bir qancha soʻzlar izohi ham keltirilgan. Jumladan, *gavharafshon, gavharbor, gavharzoy, gavharnigor, gavharnisor, gavharoroy, gavharposh, gavharrez, gavharsanj, gavharfishon* [1,389].

Ne kogʻazgʻakim, kilki gavharfishon,

Qilib mehri zarkash anga zarfishon (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Maʼnosi: *Qalami gavhar sochuvchi bu shoir oʻz soʻzlarini qogʻozga yozgan emas, yoʻq, zar sochuvchi quyosh unga zarvara sochib turgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet). Mazkur baytda *gavharfishon* soʻzi bezak beruvchi maʼnosini ifodalashi ANATILda koʻrsatib oʻtilgan [1,389].

Alo to quyosh zarfishon oʻlgʻusi,

Sahob ilgi gavharfishon oʻlgʻusi (Saddi Iskandariy, 67-bet).

Keltirilgan baytda *gavharfishon* leksemasi bahrali, barakali, qimmatbaho yomgʻir, yogʻin-toʻkin maʼnosini ifodalaydi [1,389].

ANATILda keltirilgan *gavhar* tushunchasi bilan bogʻliq leksemalarni quyida jadvalda ifodalashni maʼqul topdik:

GAVHAR	1	<i>gavharafshon</i> – <i>gavhar</i> sochuvchi,
	2	<i>gavharbor</i> – <i>gavhar</i> sochuvchi (bu yerda soʻz mevasi <i>gavharga</i> tashbeh qilingan)
	3	<i>gavharzoy</i> - <i>gavhar</i> yaratuvchi, nodir maʼnolar ifoda etuvchi
	4	<i>gavharliq</i> – donishmand kishilar, ilm ahli, ulugʻlar.
	5	<i>gavharnigor</i> – <i>gavhar</i> bezakli
	6	<i>gavharnisor</i> – yaxshi soʻzlar bilan maqtash
	7	<i>gabharoroy</i> - maʼnolarni bezatuvchi
	8	<i>gavharposh</i> – <i>gavhar</i> sochuvchi, nur sochuvchi
	9	<i>gavharrez</i> – qimmatli soʻz aytuvchi
	10	<i>gavharsanj</i> - soʻz saralovchisi, oʻlchovchi
	11	<i>gavharfishon</i> - barakali, qimmatbaho yomgʻir, yogʻin-toʻkin

XULOSA

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari turkiy, arabiy soʻzlar bilan bir qatorda forsiy soʻzlarni ham oʻz ichiga olgani bilan ahamiyatlidir. Navoiyning zullisonayn shoir sifatida forsiy soʻzlardan, xususan, forsiy izofali birikmalardan mohirona foydalangani dostonning badiiy qimmatini yanada oshirishga xizmat qilgan, desak yanglishmaymiz.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. –Toshkent, Fan, 1983.-B. 387-394.
2. Gafurova S. “Tavorixi guzida - Nusratnoma” asari leksikasi. Fil.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Fargʻona, 2024. –B.-96.
3. Haqqul Ibrohim. Alisher Navoiy va Sulton Abusaid.Oʻzbek tili va adabiyoti, 2015, №1.-B.17-18.
4. Karimova F. Debochalarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari talqini. Oʻzbek tili va adabiyoti, 2015, № 1. –B.33.
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2009. 3-jild, 59-bet.
6. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том, -Москва: Русский язык, 1983. 594-с.
7. Umarova N. Alisher Navoiy-badiiy soʻz ustasi. –Fargʻona, 2010. –B. 5-53.
8. Z.Alimova. (2024) Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi forsiy sinonimlar xususida. Fargʻona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. №1, 362-367.
9. Z.Alimova, M.Rasulova. (2024) Oʻzbek tilining forsiy til bilan aloqasi xususida. Fargʻona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. № 1, 387-389.
10. Z.Alimova. (2023) [Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asaridagi ayrim forscha qoʻshma soʻzlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida](#). Scientific journal of the Fergana State University, №2. 639-643.
11. Z.Alimova. (2023) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha soʻzlarning semantik jihatdan guruhlanishi. №1. 380-385.

12. A.Z. Vaxobovna. (2024) The phenomena of derivation in English. *Western European Journal of Linguistics and Education* 2 (5), 300-306.
13. A.Z. Vaxobovna.(2024) About the lexical meanings of some Persian synonyms in Navoi's epic "Saddi Iskandari". *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 11 (01).
14. Z.Alimova. (2023) Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari xususida. *Farg'ona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. № 2.* 639-643.
15. A. Zarifa. (2022) "Saddi iskandariy" asarida forsiy izofali birikmalarning qo'llanilishi. *Farg'ona davlat universiteti. Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 3-qism.* 80-82.
16. З.Алимова. (2021) Форсча-тожикча ўзлашмаларда вокализмларнинг ўзгариши. *ФарДУ, Илмий Хабарлар. № 1.* 129-133.